Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

SAID AHMAD BADIIY NASRIDA FRAZEOLOGIZMLARNING PRAGMALINGVISTIK ASPEKTLARI
(“JIMJITLIK” ROMANI MISOLIDA)

Allayarova Guljayna To‘raxon qizi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq
davlat universiteti 1-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23324593

Annatotsiya: Ushbu maqolada Said Ahmadning “Jimjitlik” asaridagi badiiy tasvir yaratish uchun qo‘llanilgan xalqona birliklar ya’ni barqaror birikmalar hamda ular ichidagi iboralar tahlil qilinadi. Bu asarda uchraydigan frazeologik birliklar.
Kalit so‘zlar: Frazema, barqaror birikma, paremiya, iboralar, frazeologizm, maqol, “Jimjitlik”, lingvistik tahlil, frazeologik birlik, badiiy matn tahlili.

Annotation: This article analyzes the folk units, that is, stable expressions used to create artistic imagery in Said Ahmad’s work “Silense”, as well as the phrases within them. The phraseological units found in this work.
Keywords: Phrase, stable combination, paremiology, expressions, phraseologism, proverb, ”silence “, linguistic analysis, phraseological unit, artistic text analysis.

Аннотация: В данной статье анализоируются народные единицы, то есть устойчивые выражения, а также фразы, используемые для создания художественного образа в произведении Саид Ахмада “Тишина”. В этом произведении встречаются фразеологические единицы.
Ключевые слова: фразема, устойчивое выражение, паремия, выражения, фразеологизм, пословица, ”тишина”, лингвистический анализ фразеологическая единица, анализ художественного текста.

Tilshunoslikda frazeologizm (yunoncha “phrasis”, frazeologik birlik, frazema- ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’noviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror turg‘un bog‘lanmalarning umumiy nomi ya’ni, ibora, logos-ta’limot) bir nechta mustaqil leksemalarning birikuvidan tashkil topgan, obrazli ma’no kasb etuvchi lisoniy birliklarni o‘rganadigan tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Bunday birliklar fanda frazeologizm deb yuritiladi.

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog‘i sifatida XX asrning 40yillarida rus tilshunosligida paydo bo‘lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A. A. Potebnya, I. I. Sreznevskiy, A. A. Shaxmatov asarlarida asos solingan bo‘lsa, barqaror (turg‘un) so‘z birikmalarini alohida tilshunoslik bo‘limi- frazeologiyada o‘rganish masalasi 20-40-yillardagi, o‘quv-metodik adabiyotlarda, Ye. D. Polivanov, S. Abakumov, L. A. Bulaxovskiy asarlarida ko‘tarib chiqilgan.

Frazeologiya bo‘yicha bir necha lug‘atlar tuzilgan. Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova, I. Qo‘shqortoyev, A. Rafiyev kabi olimlar ishlarida keng o‘rganilgan [2. 78]. Yozuvchilardan esa Abdulla

Qodiriy, Abdulla Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan.

Asarning badiiy quvvatini ta'minlashda muallif tomonidan mahorat bilan qo'llanilgan barqaror birikmalar alohida o'rin tutadi. Ular shunchaki bezak emas, balki qahramonlar xarakterini ochish va xalq nutqining jonli manzarasini yaratishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi [4. 75].

Hozirgi o'zbek tilshunosligida badiiy matn tahlili, xususan, yozuvchi uslubiga xos bo'lgan frazeologik birliklarning tadqiqi dolzarb masalardan biri sanaladi.

Barqaror birikmalar tilning obrazliligi va emotsionalligini oshiruvchi tayyor lisoniy birliklar sifatida adibning individual stili (usuli) belgilab beradi. Said Ahmadning "Jimjitlik" romanida uchraydigan iboralar, maqol va matallar asar ruhini milliy bo'yoqlar bilan boyitgan.

Quyida ushbu romanda qatnashgan 500 dan ortiq iboralar mavjud bo'lib, shundan 20 tasini tahlil qilib chiqamiz.

… keksalar alam o'rtagan kishiga, yig'la, ko'nglingni bo'shat, deydilar. ("Jimjitlik" 3-bet)

Ko'nglini bo'shatmoq-romanda keltirilgan ibora o'zbek tilida bor dardini, xasratini aytib yoki yig'lab olib, dilini yengillatmoq ma'nosida ishlatilgan. Yuqorida keltirilgan ibora gapda buyruq -istak maylidagi kesim bo'lib kelgan.

Soyda o'zi o'tirib o'y surmoqchi…("Jimjitlik" 11-bet).

O'y surmoq-asarda qo'llanilgan mana shu ibora o'zbek tilida chuqur hayolga cho'mmoq, biror narsa haqida uzoq o'ylamoq ma'nosini ifodalaydi. Quyidagi gapda qo'llangan ibora bosh bo'lak(kesim) vazifazida kelgan.

Zaynab hijolat tortib, norozi ohangda dedi:

-Yo'g'e, rais unaqa odam emas. . . ("Jimjitlik"18-bet)

Hijolat tortmoq -asar tarkibida qo'llanilgan ushbu ibora hozirgi o'zbek tilida noqulay vaziyatga tushib, uyalish, tortinish. Romanda uchragan bu ibora holat holi vazifasida qo'llangan.

Uning gaplari Hurmat tog'aning qulog'iga kirmaydi, . . ("Jimjitlik"53-bet).

Qulog'iga kirmoq-ushbu gapda qo'llangan ibora birovning gapini eshitish, anglash holatda bo'lmaslik, gapga e'tibor berolmaslik ma'nosini bildiradi. Leksik jihatdan bosh bo'lak (kesim) vazifasida kelgan. [5. 422]

…, aksiga olib oblastga chaqirib qolishdi. ("Jimjitlik"53-bet).

Aksiga olmoq-hozirgi zamonaviy o'zbek tilida ushbu ibora aynan kerak bo'lmagan paytda, teskari kelib, ishning rejadagidek bo'lmay qolishi ma'nisini ifodalaydi. Ushbu ibora gapda kirish so'z hisoblanadi.

Keyin o'ziga kelib, ishonqiramay dedi:. . . ("Jimjitlik"54-bet).

O'ziga kelmoq-romanda keltirilgan ushbu ibora hushini yoki fikrini jamlab, es-hushini joyiga keltirib olmoq degan leksik ma'no ifodalaydi. Asarda keltirilgan bu ibora sintaktik jihatdan hol hisoblanadi. [5. 611]

Tog'a jiyanlar o'rtasida allaqanday dilgirlik borligini bilib baxshilar tomonga ketdi. ("Jimjitlik"147-bet)

Dili vayron bo'lmoq(dilgirlik)-asarda keltirilgan mana shu ibora qattiq xafa bo'lmoq, qayg'uga botmoq ma'nosini ifodalaydi. Ushbu ibora grammatik jihatdan hol vazifasida kelgan.

"Oltin Yulduz"va deputatlik nishoni qadalgan kostyumni kiyib, o'ziga oro berib chiqdi. ("Jimjitlik" 151-bet)

Oro bermoq-ushbu ibora zamonaviy o‘zbek tilida o‘ziga yuvinib taribga solib, chiroyli va rasmiy qiyofaga kirmoq ma’nosida qo‘llanilgan. [5. 348]

Zaynabning bo‘yi cho‘zilgan sari o‘gay ona, Tolibjon bilan ikkovining boshini qovushtirib qo‘yaman, begonaga ketmasin, derdi. (“Jimjitlik” 193-bet).

Asarda qo‘llanilgan ushbu ibora gapda bosh bo‘lak (kesim) vazifasini bajargan.

Boshini qovushtirmoq-asarda uchraydigan bu ibora ikki yoshni turmush qurdirish, oilali qilish ma’nosidagi ibora hisoblanadi. Mazkur gapda ibora kesim vazifasida qo‘llanilgan.

Unga ters keladiganlarning kosasi oqarmasdi. (“Jimjitlik”197-bet)

Kosasi oqarmoq-asar tarkibidagi ushbu ibora hozirgi o‘zbek tilida ishi yurishmasdi, omadi kelmasdi yoki foya ko‘rmasdi degan leksik-semantik ma’nolarni beradi. Ushbu ibora gap tarkibida kesim vazifasida kelgan.

…uchinchi qadahdan keyin “indamas” Tolibjon ham tilga kirdi. (“Jimjitlik” 226-bet).

Tilga kirmoq-romanda uchraydigan bu ibora gapira boshlamoq, jimlikni buzib suhbatga qo‘shilmoq degan ma’no anglatadi. Asar tarkibida qo‘llangan mana shu ibora kesim bo‘lib kelgan va tahlil qilganda bosh bo‘lak vazifasini bajaradi. [5. 492]

Mirvali unga bir o‘qrayib qaragan edi, gapi og‘zida qoldi. (“Jimjitlik”258-bet)

Og‘zida qolmoq-asarda uchraydigan ushbu ibora o‘zbek tilida gapini oxiriga yetkaza olmay, to‘satdan to‘xtashga yoki gapini bo‘lishga majbur bo‘lish hisoblanadi. Romanda keltirilgan ushbu ibora fe‘l kesim vazifasida kelgan.

General xamirdan qil sug‘urgandek qilib undan 600ming olaman…(“Jimjitlik” 291-bet).

Xamirdan qil sug‘urmoq-romanda keltirilgan mana shu iboralar hozirgi o‘zbek tilida o‘ta silliq, oson hech qanday qiyinchilik va qarshiliksiz biror ishni bitirish degan ma’noni bildiradi. Romandagi bu ibora gramatik jihatdan ikkinchi darajali bo‘lak (tarz holi) bo‘lgan.

Bu gapdan Mirvali pinagini ham buzmadi. Qaytaga uni ermak qilib kula boshladi. (“Jimjitlik”293-bet).

Pinagini buzmoq-romanda keltirilgan ibora zamonaviy o‘zbek tilida parvo qilmasdan, o‘zini o‘ta xotirjam tutish degan ma’noni bildiradi.

. . . , tepa sochingiz tik bo‘lib ketardi. . (“Jimjitlik” 306-bet).

Tepasi sochi tikka bo‘lmoq-asar tarkibida qo‘llanilgan ushbu ibora qattiq qo‘rqmoq, daxshatga tushish kabi leksik ma’nolarni bildiradi. [5. 485] Asar tarkibidagi ushbu ibora gapda bosh bo‘lak (kesim) holida kelgan.

U Tolibjonning qanchalab ta’nalarini tishiga tishini qo‘yib eshitgandi. (“Jimjitlik” 354-bet).

Tishini tishiga qo‘ymoq- asar tarkibida uchraydigan mana shu iboralar o‘zbek adabiy tilida chidamoq, sabr qilmoq, butun his-tuyg‘usini iroda kuchi bilan yengib chidamoq. Varianti: tishni tishga qo‘ymoq, tishini tishiga bosmoq lug‘aviy ma’nolarni ifodalaydi. [5. 501] Yuqorida keltirilgan mana shu ibora gap tarkibida ikkinchi darajali bo‘lak (hol) vazifasida kelgan.

Ovchiga chap beradi. (“Jimjitlik”383-bet).

Chap bermoq-asarda qo‘llanilgan ushbu ibora chalg‘itib qochmoq, tutilmasdan chap berib ketmoq ma’nolarini bildiradi. Romanda keltirilgan bu ibora gapda sodda kesim bo‘lib kelgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Said Ahmadning “Jimjitlik”romani o‘zbek milliy adabiy tilining g‘oyat boy ekanligini ko‘rsatuvchi yorqin misoldir. Asarda qo‘llangan ko‘p sonli frazeologizmlar

shunchaki bezak bo‘lib qolmasdan, syujet rivojini ta’minlash va personajlarning ichki kechinmalarini tabiiy hamda ta’sirchan yoritishda bosh vosita vazifasini o‘tagan. Ushbu lingvistik tahlillar yozuvchining o‘ziga xos individual uslubi va badiiy tafakkur ko‘lamini belgilashda muhim ilmiynazariy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Said Ahmad “Jimjitlik” asari. Toshkent. 2021;
2. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. Toshkent. 2020 O‘zbekiston nashriyoti.
3. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. Toshkent. 2023 O‘zbekiston nashriyoti
4. Shomaqsudov Sh. , Shorahmedov Sh. , “Ma’nolar maxzani “, Toshkent.
5. 2021
6. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati . Toshkent. 2020